

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA DARSLARNI DIDAKTIK  
O‘YINDAN FOYDALANIB O‘TISH YUZASIDAN USLUBIY  
TAVSIYALAR**

***Imanova Raxila Nigmatullayevna***

*Toshkent viloyati O‘rta Chirchiq tumani*

*67-maktab boshlangich ta’lim o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Bu uslubiy tavsiyada kichik maktab yoshidagi bolalarni o‘qishga qiziqtirish va didaktik o‘yinlar orqali mavzuni to‘la tushuntirib berish nazarda tutilgan. Oq‘ituvchilar uchun bir nechta didaktik o‘yinlardan namunalar keltirilgan, fikr-mulohazalar bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Jamiyat taraqqiyoti, ong, ijtimoiy muhit, didaktik o‘yin, “Davom ettir o‘yini”, “Kim epchil”, “Kim yuzni birinchi bo‘lib aytadi?”, “O‘z o‘rningni top”, “Bo‘laklarni tiklash”, “Xotira mashqi”, To‘g‘ri-noto‘g‘ri”, “Zanjir”, texnologiya, mantiqiy fikrlash.

***“Bolalarimizni birovning qo‘liga berib qo‘ymasdan  
ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim”***

Shavkat Mirziyoyev

Bugungi kunda har jihatdan yetuk, tashabbuskor, mas’uliyatli shaxsni tarbiyalash har bir fan o‘qituvchisining muhim vazifalaridan hisoblanadi. Ayniqsa boshlang‘ich ta’lim shaxs ta’lim-tarbiyasiga poydevordir. Kichik maktab yoshidagi bolalarga ta’lim berishda ko‘zlagan maqsadimizga erishish muhimdir. Ta’lim samaradorligi o‘qituvchi mehnatining asosiy mezoni hisoblanadi. Samaradorlik esa o‘quvchilarining fanga bo‘lgan qiziqliklari va o‘zlashtirish darajasida ko‘rinadi. Boshlang‘ich ta’lim davrida o‘quvchilarining aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o‘yinlar alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga dars berishda o‘qitishning har xil metodlaridan unumli foydalanish zarurdir. Bola ilk maktabga qadam qo‘yanida uning o‘yin qaroqligi,

tezda zerikishini kuzatish mumkin. Ta’limning o‘yinli faol texnologiyalari o‘quvchilarni zeriktirmasdan ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi qila olishga qaratilgandir. Qiziqarli didaktik o‘yinlar , o‘zlashtirishning dastlabki bosqichida muhimdir. O‘quvchida bilim olishga ishtiyoq, izlanuvchanlik va topqirlik faoliyatini shakllantiradi. Eng asosiysi didaktik o‘yinlardan foydalanish berilgan mavzuni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etadi. Boshlang‘ich sinfning 1-sinf misolida quyidagi didaktik o‘yinlardan foydalanish samaralidir. O‘qish darslarida “Davom ettir o‘yini” . O‘qituvchi matn mazmunini so‘zlashni boshlaydi. O‘qituvchi istagan bir o‘quvchi uni gapini davom ettiradi. Shu tariqa barcha o‘quvchilar hushyorlikka faollikka o‘rganadi. Ona tili darslarida “Zanjir” o‘yinini yangi mavzusini o‘tishda ham samarali. Unda O‘qituvchi bir so‘z aytadi, shu so‘zga bog‘liq so‘zlar aytib davom ettiriladi.Yakunida matn hosil bo‘ladi. Bu o‘yindan dars davomida , o‘yilgan mavzuga bog‘lab , darsning mustahkamlash qismida yoki dam olish daqiqalarida foydalanish ham mumkin. Matematika fanidan “Kim epchil” o‘yini hozirjavoblik , topqirlik malakalarini oshirishga qaratilgan bu o‘yinda o‘quvchilarga sonly ifodalar tarqatiladi. Ifoda qiyamatini to‘g‘ri va tez topgan o‘quvchi rag‘batlantiriladi. Matematikadan “Ikki xonali sonlarni qo‘sish va ayirish “ mavzusida “Kim yuzni birinchi bo‘lib aytadi?” didaktik o‘yinini o‘tkazsa bo‘ladi. Uni ikki o‘quvchi o‘ynaydi. O‘yinda qatnashuvchilarning birinchisi 10 dan oshmaydiganbiron sonni aytadi, ya’ni 10 yoki 10 dan kichik sonlarni keltirish mumkin. Ikkinci o‘quvchi birinchi o‘quvchi aytgan songa 10 dan oshmaydigan sonni qo‘sib , birinchi oyinchiga aytadi. Shu tariqa ikkala o‘quvchi o‘yinni davom ettiradi .O‘yin yig‘indi 100 ga yetgunga qadar davom etaveradi. O‘yinni birinchi bo‘lib 100 ga yetkazgan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi. Bu o‘yin orqali bolaning og‘zaki nutqi rivojlanadi va hozirjavoblikka o‘rganadi. Atrofimizdagi olam fanidan “O‘z o‘rningni top” didaktik o‘rini orqali “O‘simpliklarning turli tumanligi” mavzusida qo‘llash yaxshi natija beradi. Bu o‘quvchilarning har xil o‘simpliklar turi, yani tabiiy, madaniy, manzarali, yoki begona o‘simpliklarni aniqlashiga yordam beradi.

“Xotira mashqi” o‘yini. Hozirjavoblik va zukkolikni oshirish maqsadida, ayniqsa birinchi tanishuv darsida qo‘llash mumkin bo’lgan o‘yin. O‘quvchi o‘z ismini aytadi va shu ism bilan boshlanuvchi biror adib nomini aytadi. Misol uchun, Adham – Alisher Navoiy, Bahodir – Zahiriddin Muhammad Bobur, Gavhar – Gulxaniy kabi. Bu o‘yinni mavzuga aloqador bo’lgan terminlarni misol qilib keltirish orqali ham olib borsa bo’ladi. Bunda o‘quvchi miyasida mavzuning asosiy terminlari muhrlanib qoladi!

To‘g‘ri-noto‘g‘ri” o‘yini. O‘qituvchilar savollarni an’anaviylikdan qochgan holda berishlari ham mumkin. Berilgan savolga o‘quvchi faqat to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri deb javob beradi. Misol uchun: O‘zbek tiliga davlat tili maqomi 1989- yil 21- oktabrda berilgan – to‘g‘ri.

“Bo‘laklarni tiklash” metodi. Bu metodda o‘qish darslarida she’r, topishmoq, maqollarni eslab qolish malakasini tekshirish uchun foydalaniladi. She’r, topishmoq, maqol matni bo‘laklarga bo‘linib, o‘quvchilarga aralash holda beriladi. O‘quvchilar bo‘laklarni tiklab, sinf doskasiga qo‘yilgan ko‘rgazma taxtasiga yopishtirishadi.

Didaktik o‘yinlarni xilma-xil tarzda tashkil etish mumkin. O‘yinchoqlar, rasmlar, tarqatmalar, geometrik shakllar ko‘rgazmalardan foydalanish mumkin. Didaktik o‘yinlardan foydalanishda aniq maqsad bo‘lishi unda bolaning yoshi , qiziqishi, fanga mosligi, undan erishish kerak bo‘lgan natija hisobga olinishi zarurdir. Yana har bir didaktik o‘yinni boshlashdan oldin, o‘quvchilarga o‘yining qoidasi , mazmuni to‘la tushuntirilishi kerak. Har bir o‘rin mantiqiy ketma- ketlik asosida bo‘lishi kerak, va kam vaqt sarflab ulkan natijalarga ega bo‘lish ham muhim hisoblanadi. Shunday qilib boshlang‘ich sinflarda didaktik o‘yinlardan foydalanib dars o‘tish o‘quvchilar faolligini oshiradi, ularni aqlini charxlaydi, mantiqiy fikrlash qobiliyatini o‘siradi, diqqatini bir joyga to‘plashni o‘rgatadi, intizoli va tartibli qilib tarbiyalashga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. I. Karimov “Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. – Toshkent:1997.
2. T. G‘afforova “ Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”. Toshkent: 2011
3. B. Abdullayeva , M. Toshpulatova Matematika o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. Toshkent- 2014.
4. N.Ahmedov, N. Abdurahmonova 1- sinf “ Matematika” darsligi T. Turon – Iqbol. 2013.